

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI

Mahammadjonova Dildoraxon Qodirali qizi
Namangan davlat universiteti Yuridik fakultet talabasi

Po'latov Otabek A'zamjon o'g'li

**Ilmiy rahbar: Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti Yoshlar masalalari va
ma'naviy ma'rifiy - ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18136697>

Annotatsiya: Globallashuv jarayoni tobora tezlashib borayotgan bir paytda yoshlarning ma'naviy dunyosi ham ko'zga ko'rinmas darajada o'zgarib bormoqda. Axborot, madaniyat va yot g'oyalar oqimi orasida yoshlar ongida muhim qadriyatlar sekin astalik bilan yo'qolmoqda, qaysidir an'analar esa mustahkamlanib bormoqda. Yoshlar ma'naviy jihatdan mustahkamlash, milliy o'zlikni asrash va zamonaviylik bilan uyg'un rivojlanish masalalariga yangicha nigoh bilan qarashlari lozim.

Kalit so'zlar: globallashuv, yoshlar ma'naviyati, urf-odat va an'analar, yoshlar onggi va madaniyati, axborot erkinligi va konstitutsiyaviy huquqlar.

Аннотация: По мере ускорения глобализации духовный мир молодежи также незаметно меняется. Под наплывом информации, культуры и зарубежных идей важные ценности постепенно исчезают из сознания молодых людей, в то время как некоторые традиции укрепляются. Молодежи необходимо по-новому взглянуть на вопросы духовного укрепления, сохранения национальной идентичности и гармоничного развития в условиях современности.

Ключевые слова: глобализация, духовность молодежи, обычаи и традиции, молодежное самосознание и культура, свобода информации и конституционные права.

Abstract: As globalization accelerates, the spiritual world of young people is also changing imperceptibly. Among the influx of information, culture and foreign ideas, important values are slowly disappearing in the minds of young people, while some traditions are becoming stronger. Young people need to look at the issues of spiritual strengthening, preserving national identity and harmonious development with modernity with a new look.

Keywords: globalization, youth spirituality, customs and traditions, youth consciousness and culture, freedom of information and constitutional rights.

Bugungi kunda dunyo uzluksiz ravishda rivojlanmoqda – davlatlar, xalqlar, madaniyatlar o'rtasida aloqa, axborot, tashqi almashinuv tez sur'atlar bilan kengaymoqda. Bu jarayon globallashuv deb ataladi. Ayniqsa hozirgi kunda bizning tevarak atrofigimizni o'rab olgan globallashuv jarayoni yoshlar ongi, dunyoqarashi va ma'naviy dunyosiga, shuningdek urf-odat va qadriyatlariga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, yoshlar ma'naviyati masalasi, ayniqsa, dolzarb muammo bo'lib qolmoqda: qanday qilib yosh avlodning milliy, ma'naviy hamda ijtimoiy dunyosini globallashuv sharoitida salbiy oqibatlardan asrab – avaylasa bo'ladi? Shu kabi savollar insoniyat olamini chuqur o'yga solmoqda.

Aytishimiz mumkin, "Globallashuv jarayoni hamma uchun foydali bo'lmoqda, ya'ni insonlar rivojlanmoqda" – deyishimiz mumkin, ammo shu yerda bir muhim narsaga ahamiyat berishimiz lozim. Ya'ni globallashuv yoshlar ma'naviyatiga qay darajada ijobiy ta'sir qilmoqda, chunki har bir inson o'ziga kelayotgan axborotni turli xil usulda qabul qilgani sari globallashuv jarayonining yoshlar ma'naviyatiga ijobiy va salbiy oqibatlari bor.

Globallashuv orqali yoshlarning dunyoqarashi kengaymoqda, chunki ular turli xalqlarning urf-odatlarini, madaniyati hamda anʼanalari bilan yaqindan tanishmoqda. Boshqa davlatlarning ilm-fan, gʻoyalar hamda texnologiyalarini globallashuv sharoiti orqali oʻrganmoqda. Bu jarayon, ayniqsa yoshlarni global muammolarga – atrof-muhit muhofazasi, inson huquqlari, ilmiy taraqqiyot kabi umijahon masalalarga jalb qilish imkonini yaratmoqda.¹ Globallashuv jarayoni, asosan, axborot almashinuvi hodisasi hisoblanadi. Taʼlim va axborot texnologiyalari rivoji, chet el tajribalari bilan tanishish yoshlarning bilim dunyosini kengaytirishga va ularni zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlar sifatida shakllanishiga koʻmaklashadi. Yuqoridagi imkoniyat hamda koʻnikmalar globallashuv jarayoni orqali yoshlar ongiga ijobiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Global axborot oqimlari, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy madaniyat yoshlar maʼnaviyatiga, milliy qadriyat va identitetga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkin – yaʼni “ommaviy maʼnaviyat” kabi holatlar vujudga kelmoqda. Shuningdek, yoshlar orasida milliy va global qadriyatlarning aralashuvi paydo boʻlish ehtimoli yuqori. Masalan, tadqiqotlarda yoshlar orasida uch xil identitet model – “anʼanaviy”, “gibrid” va “global” kuzatilgan. Koʻplab axborot manbalarining tartibsizligi, maʼlumotlarning inson ongiga tabiiy ogʻishi, notoʻgʻri model, umumiy va yuzaki fikrlarning yoshlar ongiga taʼsiri eng katta muammolardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda yoshlar maʼnaviyatining shakllanishida taʼlim, oilaviy – ijtimoiy muhit va madaniyat muhim omillar tarkibiga kiradi. Yoshlar maʼnaviyati mustahkam boʻlishi uchun faqat globallashuv jarayoniga qarshi chiqish emas, balki ijobiy mexanizmlarni yoʻlga qoʻyish zarur. Chunki oilaviy tarbiya, maktab – taʼlim muassasalari, jamiyat va jamoatchilik maskanlari yoshlarning maʼnaviy dunyosini shakllanishida markaziy rol oʻynaydi. Shuning uchun yoshlar orasida muloqot madaniyati, sogʻlom jismoniy va ruhiy muhit, oʻzaro hurmat – yaʼni har bir shaxsning millati, madaniyati, qarashlariga hurmat koʻrsatilishi muhim sanaladi. Shuningdek, yoshlarni axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlashga oʻrgatish hozirgi davrda muhim omil hisoblanmoqda. Bundan tashqari global axborot maydonida ongli tanlov qilish koʻnikmalarini shakllantirish lozim.

Globallashuv muhitidan Oʻzbekiston ham chetda qolgani yoʻq. Chunki mamlakatimiz miqyosida globallashuv muhiti hamda maʼnaviyat masalasi bugungi kunda koʻplab muhokamalarga sabab boʻlmoqda. Shuning uchun ikki oily taʼlim muassasasi hamkorligida “Globallashuv sharoitida yoshlar maʼnaviyati” mavzusida ilmiy – amaliy anjuman tashkil etilgan². Unda globallashuvning yoshlar ongi va dunyoqarashiga taʼsiri, milliy qadriyatlarni asrab – avaylash va maʼnaviy barqarorlikni mustahkamlash muammolari muhokama qilinmoqda.³ Shuningdek, taʼlim, tarbiya va maʼnaviy – maʼrifiy ishlarni jadallashtirish, yoshlarni zamonaviy bilim va maʼnaviyat egasi etib voyaga yetkazish davlat va jamiyat oldidagi ustuvor vazifalardan biri ekanligi taʼkidlangan.

Globallashuv jarayonida yoshlar maʼnaviyatiga “ommaviy madaniyat”, media vositalari va maʼnaviy immunitet zarurati kabi maʼnaviy tahdidlar kuzatilmoqda.⁴ Yaʼni media va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan noyoʻgʻri gʻoyalar, ekstremistik yoki nomaqbul kontent yoshlar maʼnaviyatiga zarar yetkazayotgani aniqlangan. Shuning uchun yoshlarning maʼnaviy

¹ A.Abdurahmonov. “Globallashuv falsafasi” /Toshkent: Oʻzbekiston / 2015.

² <https://ilmiyanjumanlar.uz>

³ <https://worldlyjournals.com>

⁴ B.Madrahimov. “Yoshlar maʼnaviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning oʻrni” /”Ijtimoiy fikr” jurnali /2022.

immunitetini – ya’ni axloqiy va madaniy ong, tanqidiy fikrlash, global jarayonlarni baholay olish qobiliyatini, shuningdek tafakkur qilish ko’nikmalarini shakllantirish zarur. Shu bilan birga yoshlar ma’naviyatini mustahkamlash va ma’naviy muhitini saqlashning bir nechta yo’llari mavjud. Birinchidan, ta’lim muassasalarida – maktablardan tortib oliygohlargacha ma’naviyat, milliy qadriyatlar, axloqiy tarbiya bo’yicha darslar, seminarlar, ma’rifat soatlarini muntazam tashkil etish lozim. Chunki ushbu yo’nalishlar yoshlar ma’naviyatini globallashtirish sharoitida himoya qilishga hamda rivojlantirishga boshlang’ich yordam beradi. Ikkinchidan, ota-onalar, ustozlar, jamoatchilik yoshlar bilan mustahkam ma’naviy – axloqiy muhit yaratish, ularni sog’lom jismoniy va ruhiy hayotga yo’naltirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Globallashtirish jarayonidan himoyalaniş uchun axborot savodxonligi va media madaniyatini rivojlantirish – yoshlarni tanqidiy fikrlashga, media kontentlarni baholashga o’rgatish lozim. Shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlar orasida muvozanatni saqlash – global tendensiyalar bilan birga o’ziga xos milliy madaniy merosga hurmatni targ’ib qilish muhim omil hisoblanadi. Yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb qilish – davlatchilik, fuqarolik mas’uliyati, jamiyatga foyda keltirish ruhida tarbiyalash yoshlarning ma’naviy dunyosiga foyda keltiradi. Bundan tashqari, madaniy va ma’rifiy tadbirlar, yoshlar forumi, anjumanlar, xalqaro almashinuvlar orqali yoshlarning dunyoqarashini kengaytirish, lekin buning bilan birga ma’naviy ildizlardan uzilmasligini ta’minlash ham dolzarb imkoniyatlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, davlat siyosati va ta’lim siyosatida ma’naviyatga alohida e’tibor – ya’ni mazkur yo’nalish davlat dasturlarida o’z aksini topmoqda. Globallashtirish – bu millatlar, madaniyatlar, axborot va g’oyalar almashinuvi jarayoni bo’lib, u yoshlar hayotiga chuqur ta’sir ko’rsatadi. Shuning uchun, hozirda globallashtirish jarayonlarining yoshlar ma’naviy hayotiga ijobiy va salbiy ta’sirlari, global madaniyat, internet, ommaviy axborot vositalari, axloq va ma’naviyat kontekstlari tahlil qilinmoqda.⁵ Agar biz yoshlar ma’naviyati, milliy identitet, axloqiy va madaniy qadriyatlarni asrab – avaylash borasida ongli sa’y – harakatlar qilmasak, globallashtirish butunlay notekis “ma’naviy maydon”ga aylanadi. Ammo – yoshlarni tarbiyalash, ta’lim – tarbiya tizimini takomillashtirish, ma’naviy immunitetini shakllantirish orqali – bu jarayondan foydalanib, barkamol, dunyoqarashi keng, milliy ongli va zamonaviy yosh avlodni tarbiyalash mumkin. Shu bois, globallashtirishni rad etish emas, balki uni maqsadli, ma’naviy – axloqiy jihatdan ongli boshqarish – bugungi jamiyat oldidagi muhim vazifalardir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. “Yoshlar siyosati to’g’risida” gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent/2024.
2. Yoshlar ishlari agentligi materiallari. – Toshkent / 2024.
3. I.A.Karimov. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent: Ma’naviyat/2008.
4. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. – Toshkent /2015.
5. A.Abdurahmonov. Globallashtirish falsafasi – Toshkent:O’zbekiston/2015
6. B.Ziyomammedov. “Yoshlar ma’naviyati va zamonaviy tahdidlar”./Toshkent/2020.
7. N.To’xtiyev. “Ma’naviyatshunoslik”/Toshkent/2017.
8. B.Mamatqulov. “Yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarining o’rni” – ‘Ijtimoiy fikr’ jurnali /2022.

⁵ Umarov.X.Z “Markaziy Osiyo yoshlari va global madaniy jarayonlar” “Jamiyatshunoslik” jurnali /2024.

9. N.Ibragimov. "Yoshlar ongining globallashuv sharoitidagi xususiyatlari". "Falsafa va huquq" / 2021.
10. "M.Xayrullayev."Globallashuv va madaniyat" – Toshkent/ 2021.
11. X.Z.Umarov. "Markaziy Osiyo yoshlari va global madaniy jarayonlar" – Jamiyatshunoslik" jurnali /2024.